

Aziza BABAJANOVA,
TPDU kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: azizababajanova191@gmail.com
Tel.: +998 99 990 90 87

O'zMU dotsenti, PhD Z.Pardayev taqrizi asosida

THE THEME OF SPRING IN THE POETRY OF BORIS PASTERNAK AND ABDULLA ORIPOV

Annotation

The article compares the Russian poet Boris Leonidovich Pasternak's poem «Spring» («Vesna») with the poem of the same name by the talented Uzbek poet Abdulla Oripov. It should be said that the relative scarcity of comparative literary studies to the works of modern poets explains the urgency of the problem in the article. This is the basis for using the comparative-cultural method in the article. What both poets paid attention to in the artistic perception of reality, instead of the environment in which they lived, emphasis was placed on the dynamics of the nature of the lyrical experience. The detail used by both poets in the image of Koklam, the functions of the artistic image in the text were revealed. At the end, the conclusions reached during the research were listed.

Key words: Comparativistics, poem, image, spring, theme, artistic detail, lyrical experience, lyrical subject, comparative method.

ТЕМА ВЕСНЫ В ПОЭЗИИ БОРИСА ПАСТЕРНАКА И АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Аннотация

В статье сравнивается стихотворение русского поэта Бориса Леонидовича Пастернака «Весна» («Весна») с одноименным стихотворением талантливого узбекского поэта Абдуллы Орипова. Следует сказать, что относительная скучность сравнительного литературоведения с творчеством современных поэтов объясняет актуальность рассматриваемой в статье проблемы. Это является основой использования в статье сравнительно-культурного метода. На что оба поэта обращали внимание в художественном восприятии действительности, а не на среду, в которой они жили, акцент делался на динамику характера лирического переживания. Детальность, использованная обоими поэтами в образе Коклама, раскрыты функции художественного образа в тексте. В конце были перечислены выводы, сделанные в ходе исследования.

Ключевые слова: Компаративистика, стихотворение, образ, весна, тема, художественная деталь, лирический опыт, лирический субъект, сравнительный метод.

BORIS PASTERNAK VA ABDULLA ORIPOV SHE'RIAYTIDA BAHOR MAVZUSI

Annotatsiya

Maqlada rus shoiri Boris Leonidovich Pasternakning "Bahor" («Весна») nomli she'ri iste'dodli o'zbek shoiri Abdulla Oripovning shu nomdagi she'ri bilan solishtirilgan. Aytish kerakki, qiyosiy adabiyotshunoslikning zamonaviy shoirlar asarlariga murojaati nisbatan kamligi, maqladagi muammoning dolzarbligini izohlaydi. Shuning o'zi maqlada qiyosiy-madaniy metoddan foydalanishga asos bo'ladi. Har ikki shoirning voqelikni badiiy idrok etishda nimalarga diqqat qilgani, bunda ular yashagan muhitning o'rniغا, lirik kechinma tabiatining dinamikasiga urg'u berildi. Ko'klam tasvirida har ikki shoir qo'llagan detal, badiiy tasvirning matndagi funksiyalari ochiqlanishiga harakat qilindi. Oxirda tadqiqot davomida kelingan xulosalar sanab ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: Komparativistika, she'r, obraz, bahor, mavzu, badiiy detal, lirik kechinma, lirik subyekt, qiyosiy metod.

Kirish. Yangilanayotgan dunyo adabiyotshunosligida rus va o'zbek badiiy tafakkuri tasviri, lirik subyektning voqelikni badiiy idrok etishi, ularda shaxs erki, yurt ozodligi, milliy o'zlikni anglash, lirik kechinmada ijtimoiy masalalar ifodasi kabi masala va muammo tadqiqotchilarining e'tiborida bo'lib kelmoqda. Zero, lirik she'riyat zamonda yuz berayotgan o'zgarishlarga xolis va tezkor munosabat bildirishi bilan xalq ongi, millat tafakkuridagi evrilishlarni nisbatan aniqroq namoyon etadi. Ayniqsa, jahon adabiyoti kontekstida lirik subyektning harakatga kelish omillari, asoslarini o'rganish kishi botiniy olamini teranroq tushunishga asos bo'ladi. Shu ma'noda Boris Pasternak va Abdulla Oripov she'riyatidagi badiiy xususiyatlarini o'rganish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Boris Pasternak va Abdulla Oripov she'riyatida shamol, o'rmon, yomg'ir, tun, bahor, kuz kabi hodisa va detallardan samarali foydalanishda yoki Shekspir yaratgan personajlarga murojaatda, badiiy ijod, xususan she'riyatni obraz sifatida aks ettirishda yaqinlik kuzatiladi. Bu esa ikki yirik shoir she'rlarini o'zaro solishtirish, qiyosiy tahvil qilish orqali ularning badiiy-estetik olamni tadqiq etish imkonini beradi. Biz mazkur maqlada bahor mavzusini oldik. Aynan bahor mavzusiga har ikkala shoir ijodida ko'p uchraydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Aslida she'riy asarlarni qiyoslashda birinchi galda she'r janri, undagi lirik subyekt ifodasiga katta e'tibor qaratiladi. Chunki adabiy davri biri-birga yaqin bo'lgan ijodkorlar asarlarida o'z adabiy davri tarixi va undagi badiiy ifodalar, lirik subyektning kechinmalarini tasvirlash vositalari muhim sanaladi. Buni adabiyotshunos Deniz Dyurishin quyidagi fikrida aniq ko'rsatgan: "Adabiyot tarixi evolyutsion o'zgarishlarni, u yoki bu poetik usulning modifikatsiyasini, obyektiv borliq bilan shartlangan ifoda xususiyatlarini tadqiq etqadi" [3]. Demak, ikki shoir ijodidagi kechinma evolyutsiyasi, bunda shoirlarning bahor fasli kelishi va u bilan bog'liq tabiiy hodisa, jarayonlar orqali aks ettirish darajasini belgilash mumkin.

Zamonaviy komparativistikaning badiiy matn, asar, diskurs, kontekst kabi tushunchalari haqida fikr yuritayotib R. Amineva quyidagilarni ta'kidlaydi: «Turli madaniyatlarda yetakchilik qiladigan va matnning asosiya ahamiyatga ega tavslifini o'zida saqlaydigan hamda maxsus biriktirilgan va tuzilmaga aylangan qimmatli, aniq meyyorga ega, anglanadigan ko'rsatmalar» badiiy ijodning spetsifik xususiyatlarini ma'lum asarda yuzaga chiqarishini ta'kidlaydi [2]. Bu yerda badiiy asar matni va uni tashkil qiladigan o'ziga xos struktura, xususan, unda qo'llangan badiiy detal, obraz, lirik subyekt botiniy olamini aks ettiruvchi boshqa tafsilotlarni ham tushunish mumkin.

Boshqa adabiyotshunos esa qiyosiy tahlilda quyidagilarga diqqat qilishni ilgari suradi. "Har qanday san'atda tabiatdan olingan qaysidir materialdan foydalaniladi. Keyinchalik bu material tegishli san'atga xos turli usullar yordamida qayta ishlanadi. Natijada qayta ishlangan tabiiy asos (material) estetik dalil darajasiga chiqadi, badiiy asar qismiga aylanadi. ... Mazkur asardagi

badiiylik usulining tafsifi shoirning yoki butun davrni yaxlit tarixiy planda, yoxud qiyosiy va tizimli tadqiq etish, o'rganishning vazifasi sanaladi” [4]. Shu ma'noda Boris Pasternak va Abdulla Oripov she'riyatidagi badiiylik masalalarini qiyoslash adabiyotshunoslik, jumladan, she'rshunoslik rivojiga hissa qo'shamdi. Ayniqsa, bu ikki shoir she'rlaridagi lirk obrazning o'xshashligi ulardagi tabiatga yaqinlikda kuzatiladi. Zero, sheriyatda lirk subyekt va unga ta'sir etgan tashqi ta'sirming harakati natijasida ichki kechinmaning dinamik tasvirini kuzatish mumkin.

Natija va tahlillar. Manbalar tahlili shuni ko'rsataqdiki, lirk she'rlarning qiyosiy tahlili orqali ikki xalq ijtimoiy taraqqiyotinming lirk subyektning lirk subyetlarga ta'sirini kuzatish imkoniy yuzaga keladi. Bunda har ikki shoir ham tabiatdan olingan peyaz, ma'lum bir jarayon yoki zamonga oid biror detalni asos qilib oladi. Natijada she'rlarda aniq ruhiy vaziyat, subyektdagi evrilishlar yuzaga chiqadi. Bu ayniqsa, bahor fasli 8ning kelshiga oid tasvirlarda yaxshi kuzatiladi. Zero, bahor mavzusi har ikki shoirga ham ijodiy potensialni namoyon etish imkonini bergen. Fikr isboti uchun Boris Pasternak va Abdullar Oripovning “Bahor” (Becha) nomli she'rlarini tahlil etamiz [6].

Aslida yillari, ayniqsa, bahor bilan bog'liq she'r har ikki shoirda bir nechtagacha uchraydi. Masalan, “Bahor” nomli bu ikkalasida ham bor. Boris Pastermak she'ri sarlavhasidan keyin qavs ichida “beshta she'rdan” degan izoh bor. Lekin mazkur sarlavha ostida uchta she'r berilgan. Birinchi she'r esa faqat ikki banddan iborat.

Aytish kerakki, ular o'z kompozitsiyasi, lirk subyektning o'zini tutishi, vogelikni badiiy ifodalashi kabilalar bilan jiddiy farqlanadi. Masalan, B.Pasternak ko'klamni qanday tasvirlaganini tahlil etamiz:

Ko'klam, terak hayron ko'chadan keldim.
U yerda cheksizlik qo'rqrar, uy qulashdan hadikda,
Kasalxonadan chiqqan choyshabli bo'xcha
singari u yerda havolar ko'm-ko'k [6].

Yuqoridagi parcha she'rning birinchi bandi bo'lib, unda lirk subyekt ko'klamdagagi o'zgarishlarni hadik aralash, sekinlik bilan, ammo aniq anglayotgani seziladi. Bu terak, cheksizlik, uy, havo detallari orqali badiiy ifodalangan. Terak detali obrazga aylanib, butun vujudiga suv yugurib, barg chiqarish oldidan jim turishi, uning tabiatdagagi muzlar erishi, kunlar isishiga hayron boqisghiga o'xshatilgan. Lirk subyekt ham ana shu teraklardan hayron qolib uyya kirmoqda va tashqaridagi bepoyon cheksizlik o'zidan qo'rqiб uzoqlashayotganga, uy esa uyg'onish jarayonidan yuragi hapqirib, qulab tushmasaydim, degandek hadikda ekanligi ta'firlanadi. Bu shoirning vogelikni nozik va teran tushunishini ko'rsatadi. Shuningdek, tasvirdagi detallar va ular yordamida lirk subyekt anglayotgan olam hadikka to'laligiga ishora bor. Masalan, “terak hayron” (“тополь удивлен”), “uy qulashdan hadikda” (“дом упость боится”), “olislari, kengliklar qo'rqiши” (“даль пугается”) kabi ifodalar orqali muallif jamiyatdagi tahlikaga ham ishora qiladi. Bu esa shoir bahor mavzusini yordamida qator ijtimoiy muammolarga ham murojat qilganini bildiradi. Agar she'r tashqi kompozitsiyasida ko'rsatilganini e'tiborga olsak, bahor kelishi, tabiatdagagi uyg'onish XX asr boshlarida rus jamiyatidagi keskin o'zgarishlarga ham ohang va dardli tasvirlanganini kuzatamiz. Hatto, havo tiniq va osmon musaffoligi “kasalxonadan chiqqan choyshab” ga o'xhsatilishida ruhiy parallelizm usuli yordamida shoirning jamiyatdagi o'zgarishlarga bo'lgan pozitsiyasi ham ko'rindi. Bu holat keyingi bandda ham davom ettiriladi:

Yulduzlardan aytilmas qolgan,
tugallanmagan hikoyadek bo'shagan tun.
Taajjubda minglab shovqinli nigoh,
Asli teran, ammo bekor bo'lgan ifodalar [6].

Aslida ko'klam va lirk subyekt uzoq qishda diqqinamas uyda qiyalnigan bahor kelgach esa dili tashqariga talpingani ifodalashi kerak edi. Ammo bu yerda tun metoforik usul yordamida yulduzlarining aytilmasdan qolgan, uzulib, tugallanmagan hikoyasida orzu havasga to'la paytida idealidan ayrilgan, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida qalbi bo'shagan, armonlarga to'la odam tasvirlangan. Bu odamni yulduz ekanligini nazarda tutsak, rus madaniyati va san'ati, adabiyotining yetuklari bo'lishi mumkin.

Kompozisiyon jihatdan birinchi band tezis, ikkinchisi esa antitezis, lekin xulosa hali yo'q. Chunki she'r matnida hali mazmuniy davomiylik mavjudligi anglanadi.

Aslida B.Pasternak ijodi murakkab bo'lib, unbdagi oddiy tabiat tasviri ham shunchaki aks etmaydi. U qandaydir maqsad yoki badiiy-estetik vazifani bajaradi. Bu haqda B.Alfonsov juda o'rinli fikrni yozgan: “Tabiat mavzusi (aynan, mavzu sifatida anglagani) tabiiyafylasunlar bo'lgan shoirlarda tabiatning o'zini rivojlantirishi, unda insoniyatning paydo bo'lishi va oxirat, stixiy va idrok haqida deyarli inkor etib bo'lmaydigan savollar tug'diradi” [1, 38-39]. Shu ma'noda shoir anglab, puxta o'ylab badiiy matnga olib kirgan har bir poetik jumla bir tomondan tabiatga aloqador bo'lsa, ikkinchi tomondan alohida ajralib turgani bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki shoir ko'plab boshqa jumlalar yaratishi mumkin edi. Ammo aynan biz tahlilga tortgan “Yulduzlarining aytilmay qolgan hikoyasi”, “shovqinli nigoh”, “kasalxonadan chiqqan” kabi jumlalar lirk subyektning borliqni qanday idrok etishini ham anglatmoqda.

Aslida “Bahor” mavzusidagi birinchi she'r shu yerda tugaydi. Uning davomida ko'klam mavzusidagi boshqa she'r keltrilgan. U to'rtta banddan iborat bo'lib, unda lirk subyekt boshqa odamga raqibining holati haqida gapirib beradi:

Tig'iz yomg'irdan qirqilar havo,
Biroz cho'kib, teshiladi muz.
Kutasan: nihoyat ufq oqarar
Va boshlanadi: guvillagan ovoz keladi [6].

Tasvirda bahor paytidagi yomg'ir va uning simsim yog'ishi havoning kesilishiga, qirqilishiga o'xshatilgan. Keyin esa yomg'irning bu harakati muzni ilma teshik qilgani va uni biroz pasaytgani haqidagi badiiy informatsiya beriladi. Uzoq qish davomida shakllangan muz ham ichidan erib, ichdan ovoz kelayotgani ta'kidlanadi. Bu bahorning ovozi, harakatga kelayotgan muz sasining badiiy ifodasi sifatida originallik kasb etadi.

Tugma solinmagan paltosin olgacha yoyib
Va har galgidek sharfi ko'krakda,
Quvib kelar oldiga solib:
Tin olmagan, dovdir qushlarni.

Mazkur bandda odamning bahor paytida quvochli oni tasvirlangan: unda sovuq bo'lishiga qaramasdan paltosining tughmalarini qadamdasdan, oldi ochiq holda sharfini hilpiratib, iliq havoda ozgina tin olish va yemish izlab yerga qo'ngan qushlaqrni qiyqiratib quvib kelayotgan odam berilar ekan, shoir uning xarakteridagi ochiqko'ngillili (“нараспашку пальтоцо” – пальчасин олди очик), beg'arazlik (“он погонит неспавших, чумелих птиц”) qirralarini keltiradi. Bu esa umumiy lirk

kechinma dinamikasiga, she'r mavzusiga mos keladi. Natijada bahor kelishi va bu xabardan tabiatda, kishilar hayotida boshlanayotgan serharakatilik, quvnoqlikka ishora qiladi. Ko'rinadiki, bu she'r avvalgi she'rdagi qo'rquv, hadik kabilardan farq qilib, quvnoqlik, hekbin qarash muvjud yetakchilik qiladi.

Adabiyotshunos Q.Yo'ichiiev aytganidek, "Shoir o'z botiniy olamidagi teran anglamni faqat shtrixlarinigina matnga olib kiradi. Bunda lirik voqelikning muhim detallari badiiy kod sifatida ko'rinadi. Shuning uchun she'rdagi har bir obraz, detal bir nechta badiiy-estetik yuklama oladi" [7]. Shu ma'noda Abdulla Oripov ham B.Pasternak kabi tabiatdagi o'zgarishlarni ifoda qilar ekan, faqat eng muhim detallarnigina she'riy matnga olib kirgan. Natijada she'rda bahor fasli haqidagi lirik subyekt anglagan badiiy haqiqat yetarli darajada namoyon bo'lgan. Fikrimiz isboti uchun she'rni tahlil qilamiz:

Bahor keldi gul sepin yoyib,

Tengsiz chiroy kasb etdi o'lka.

Gul bahorning nurli jilvasi

So'ngsiz sevinch baxsh etdi qalbga [5].

Avvalo aytish kerakki, A.Oripov she'ri yaxlit band bo'lib, yigirma qatordan iborat. Yuqoridagi misralar uning birinchi qatorlari sanaladi. Parchada "Bahor keldi" degan obrazli ifoda badiiy kod vazifasida kelib, u she'rning keyindasgi asosiy maqsad va tasvirlarni umumiy tarzda anglatadi. She'r esa nisbatan aniq, yorqin bo'lishi uchun undagi badiiy tasvir komkret asosda aks etishi kerak. Shuning uchun muallif gul ochilishi, nurlar jilva qilishiga urg'u bergan. Boris Pasternak she'rida esa muzlar eriy boshlashi, muzlarning ichida guldirash eshitilishi, terak va uylarning uzoq qishdan charchab, endi bahordan umidini uzgandek hadikka tushgani berilgan. Qor o'rniga yomg'ir yog'ishi, qorlar biroz cho'kkaniga diqqat qilingan. Bu, avvalo, shoirlar yashagan muhit va makon bilan bog'liq. Abdulla Oripov buni teran anglagan holda bahordan o'lka yanada chiroyli bo'lib ketganiga e'tibor beradi. Natijada lirik kechinma tabatiida ko'tarinkilik seziladi. She'rning keyingi misralarida voqelikka yanada aniqlik bag'ishlash maqsadida konkret detallarning holatiga urg'u beriladi:

Qir adirda ko'k maysa – gulam,

Butoqlarda jilmayar kurtak.

Yana keldi erkatoj ko'klam

Yoshlikday sho'x, nурдай yugurak.

Mazkur parchaning birinchi misrasida metaforik asosda maysa gilamga o'xshatilgan. Bu aslida XX asr o'zbek she'r yiyatidagi an'anaviy o'xshatish bo'lib, shoirlarning "butoqlarda jilmayar kurtak" degan obraziga hamohanglik kasb etgan. Daraxtlarning tana yoki novda qismida bo'rtib ko'ridan, daraxtning bargi yoki gulining ilk nishonasi bo'lgan kurtakning uchida labga o'xshash ochilgan a'zosi bo'ladi. Shoirlar ana voqelikni metaforik asosda inson jilmayishiga o'xshatib, kurtakni detal-obrazga aylantirgan. Bu haqiqy badiiy yangilik sanaladi. Keyin esa ko'klamga ta'rif berib, madhiya usulidan foydalangan. Natijada she'rdagi kechinma tabatiida ko'tarinkilik, tantavorlik yuzaga kelgan. «Xullas, lirkada kechinmani u yoki bu tarzda shoirlarning o'zi bilan bog'lash biz uchun odatiy hol, isbotlash zarurati bo'lмаган haqiqatga aylangan». [8,218] Shuning uchun mazkur she'rdan B.Pasternak she'ridagi kabi katta ijtimoiy dard yoki shaxs va jamiyat muammosini ifodasidan ko'ra hayotga tashna, borliqni anglashga intiluvchi lirik subyekt yetakchi deyish to'g'ri bo'ladi. Buni she'rning keyingi misralarida yanada yoqqolroq kuzatish mumkin:

Toshdan toshga to'sh urib shoshar –

Qayoqqadir zilol shalola.

Qanday go'zal bahor tuhfasi!

Adirlarda qirmizi – lola.

Keltirilgan parchadagi suv va lola detali hamda ularga berilgan ta'rif she'rdagi lirik kechinma mohiyatini yanada teran bo'lishiga xizmat qilgan. Birinchi ikki misrada metaforiklashgan epitet va istiora zilol sunvi obrazga aylantirib, uning umumiy xususiyatini insoniy fazilatga bog'lagan. Xususan, "Toshdan toshga to'sh urub shohsar" misrasida tig'iz joylashgan toshlar orasidan oqib o'tayotgan suvning holati, zich joylashga dushman orasidan o'tayotgan qahramon shaxsga qiyoslanadi. Keyingi qator esa uning yana bir o'xshashi bo'lib, endi uning asli zilol, toza ekanligi va qayoqqadir shoshayotgani keltiriladi. Bu yerdagi gumon olmoshi (qayoqqadir) suvning harakatini obrazga aylantirib, uning ham mavhum bo'lsa-da, o'zi bilmagan joylarga intilishida hayotga tashnalik, nimadir yaratish, ochiq kurashga chiqish kabi jihatlar borligini anglatadi

Umuman olganda Abdulla Oripov ushbu she'ridagi bahor tasvirida, samimiy va teran kechinmalarni ifodalaydi. Bunda gul ochilishi, suvlarning tezroq oqishi, lola kabi detallarga diqqat qilgan. Bu esa uning she'rini Boris Pasternak she'ridan ajralib turishimi ta'minlagan. Holbuki, har ikkala she'rda ham bahor mavzusi yetakchilik qiladi. Demak, bitta mavzuni turlicha tushunish va ifodalash mumkinligi isbotini topgan.

Xulosalar. 1. Boris Pasternak va Abdulla Oripov bahor haqida bir nechta she'rlar yozishgan. Lekin ularda bahorni bildiruvchi tasvirga turlicha detallar olib kiriilgan. Bu birinchi galda har ikki shoirlarning yashash kanoni, borliqni idrok qilishidagi farqlarni ko'rsatadi. 2. Boris Pasternak she'rida ijtimoiy hayotdagi qator salbi jarayon ta'sirida nisbatan g'amgin ifodalar va kechinma tabatiida biroz hyadik borligi kuzatilsa, Abdulla Oripov she'rida esa lirik kechinma nisbatan ko'tarinkilik ifoda kasb etgan.

ADABIYOTLAR

- Альфонсов В. Поззия Бориса Пастернака. Монография. – Л.: Сов. писатель, 1990. – 368 с.
- Аминев Р.В. Основы сравнительного и сопоставительного литературоведения. – Казань: Казан. гос. ун-т 2007. – 76 с.
- Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – Москва: Прогресс, 1977. – 318 с.
- Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – 324 с. www.vusnet.ru
- Орипов А. Танланган асарлар: 4 жилдик. – Т.: Фаур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр, 2000. – 432 б.
- Пастернак Б.Л. Стихотворения/ Сост. И предсл. Н.Банникова. – М.: Молодая гвардия, 1990. – 224 с.
- Yo'ichiiev, Qahhor. "LIRIK JANR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR." Scientific journal of the Fergana State University 2 (2022):<https://scholar.google.com/>.
- Ҳамдамов У. А. XX аср ўзбек шеърияти бадиий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Фил.фан.доктори (DSc) ... диссерт. – Т.: 2017. – 260 б.